

# Amaldagi islohotlar: Inson qadri uchun!



Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov tashabbusi bilan Termiz shahar hokimligi tomonidan 110 ta ko'makka muhtoj oilaga bayram sovg'asi ulashildi. Darhaqiqat, yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash orqali inson qadri ulug'lanmoqda. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi. Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi. Bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratilganligini islohatlar negizida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.



Surxondaryo viloyati hokimi boshchiligida ham urush va mehnat faxriylarini, aziz ayollarimiz hamda yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash, ko'makka muhtoj insonlarga g'amxo'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor berilmoqda.

